

TA'LIMNI MOLIALASHTIRISH TIZIMLARINING VUJUDGA KELISH
BOSQICHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

STAGES OF THE DEVELOPMENT OF EDUCATION FINANCING
SYSTEMS AND THEIR CHARACTERISTICS

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o'g'li,

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini moliyalashtirish bosqichlarining tarixiy shakllanish jarayoni, ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Dastlabki diniy va xayriya asosidagi moliyalashtirish tizimlaridan boshlab, ijtimoiy davlat (velfer) modeli hamda zamonaviy inklyuziv moliyalashtirish tizimigacha bo'lgan evolyutsiya jarayoni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, turli davr va hududlarda ta'limni moliyalashtirishning manbalari, ijobiy va salbiy jihatlari o'rganilib, zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, moliyalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat va xususiy sheriklik, inklyuziv model.

Аннотация: В статье рассматриваются этапы становления систем финансирования образования, их социально-экономические основы и характерные особенности. Проанализирована эволюция моделей — от религиозно-благотворительных и государственных до современных инклюзивных систем финансирования. Особое внимание уделено источникам финансирования, положительным и отрицательным аспектам каждого этапа, а также приведены выводы и предложения, направленные на совершенствование системы образования Узбекистана.

Ключевые слова: система образования, финансирование, социально-экономическое развитие, государственно-частное партнерство, инклюзивная модель.

Abstract: This article examines the historical development stages of education financing systems, their socio-economic foundations, and distinctive characteristics. The study highlights the evolution from religious and charitable funding models to

welfare-state and modern inclusive financing mechanisms. The analysis covers various periods and regions, exploring funding sources, advantages, and limitations, and offers policy recommendations to enhance the sustainability of Uzbekistan's education financing system.

Keywords: education system, financing, socio-economic development, public-private partnership, inclusive model.

Bugungi globallashuv, raqamli iqtisodiyot va bilimga asoslangan jamiyat sharoitida ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'lar nafaqat inson kapitalining shakllanishiga, balki mamlakatning innovatsion salohiyati, iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ta'limni moliyalashtirish milliy rivojlanish strategiyalarining markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

XXI asrda davlatlar o'rtasidagi raqobat darajasi tobora inson kapitalining sifatiga tayanayotgan bir sharoitda, ta'limga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslarning hajmi, manbalari va taqsimot mexanizmlari har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon banki, BMT, OECD va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning so'nggi tahlillarida ham ta'limni moliyalashtirish tizimlarining samaradorligi, adolatlilik va barqarorligini ta'minlash global miqyosdagi ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda turli davlatlarda ta'limni moliyalashtirish mexanizmlari siyosiy tizim, iqtisodiy imkoniyat va ijtimoiy ustuvorliklarga ko'ra turlicha shakllangan. Ayrim mamlakatlarda davlat budjeti asosiy moliyaviy manba sifatida qolayotgan bo'lsa, boshqalarida xususiy sektor, xalqaro grantlar va nodavlat tashabbuslarning ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga, ta'limni moliyalashtirishda tenglik, resurslardan samarali foydalanish, hamda natijadorlik tamoyillarini uyg'unlashtirish global siyosiy kun tartibining muhim yo'nalishiga aylangan. Shu jihatdan, ta'limni moliyalashtirish tizimlarining shakllanish jarayonini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarining turli modellari va evolyutsion rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilish, ularning samaradorlik omillarini aniqlash hamda zamonaviy davlatlar uchun maqbul yondashuvlarni belgilash imkoniyatini beradi.

Ta'limni moliyalashtirish tizimlarining evolyutsiyasi borasida xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, J. Musgrave o'zining "Public Finance in Theory and Practice" asarida ta'limni moliyalashtirish

tizimlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy funksiyalari bilan bog‘lab, ularni davlat tomonidan to‘liq moliyalashtirish davri, aralash moliyalashtirish bosqichi va bozor mexanizmlariga asoslangan tizim shaklida tahlil qilgan[1, 45–63-b]. Shuningdek, E. Hanushek ta‘lim moliyalashtiruv jarayonini inson kapitali nazariyasi doirasida o‘rganib, uning iqtisodiy o‘shirishga bevosita ta‘sirini ta‘kidlagan. Unga ko‘ra, ta‘limga ajratiladigan mablag‘larning samaradorligi ularning sifat ko‘rsatkichlariga va resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlariga bog‘liqdir[2, 111–132-b].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar orasida H.Do‘stmuhammad va N. Jo‘rayevlarning ishlari e‘tiborga molik. O‘zbekistonlik iqtisodchi H.Do‘stmuhammadning fikricha “Ta‘lim - bu barkamol insonni shakllantirishga qaratilgan investitsiya. Jamiyat ham, davlat ham, bunday investitsiya kiritishdan manfaatdor, chunki, ta‘lim sifatini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlaydi, mehnat unumdorligini oshirishga, mavjud ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bois, ta‘limga yo‘naltirilayotgan moliyaviy resurslar va ulardan samarali foydalanish chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan ustuvor ahamiyatga egadir [3, 42-b]. N. Jo‘rayev esa O‘zbekiston ta‘lim tizimining moliyaviy asoslarini islohotlar bosqichlari bilan uyg‘un holda o‘rganib, 1990-yillardan keyingi davrni “bozor mexanizmlarini joriy etish va budjetdan tashqari manbalarni kengaytirish bosqichi” deb belgilaydi. Olim fikricha, bugungi kunda ta‘limni moliyalashtirishning barqaror modeli davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga tayanishi lozim[4, 14-b].

Ta‘limni moliyalashtirish tizimlarining rivojlanish jarayoni tarixan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ilmiy manbalarda ularning shakllanishi shartli ravishda quyidagi asosiy bosqichlarga ajratiladi:

- dastlabki (davlat himoyasiga asoslangan) bosqich
- sanoatlashuv davrining davlat modeli
- ijtimoiy davlat (velfer) davri
- bozor islohotlari va xususiylashtirish davri
- zamonaviy barqaror va inklyuziv moliyalashtirish bosqichi

VI asrdan XVII asrgacha bo‘lgan davr ta‘limni moliyalashtirish tarixida dastlabki bosqich sifatida qaraladi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, ta‘lim tizimi hali davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida shakllanmagan bo‘lib, asosan diniy tashkilotlar, jamoaviy birlashmalar va xayriya homiylari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, xususan Angliya, Germaniya va Fransiyada, ta‘lim faoliyatini yuritishda cherkovlar markaziy o‘rinni egallagan. Ta‘lim muassasalari asosan monastir maktablari, diniy seminariyalar(diniy yetakchilarni tayyorlash maqsadida tashkil etilgan o‘quv yurtlari) va boy zodagonlar

homiyligida tashkil etilgan o'quv dargohlari shaklida mavjud bo'lgan. Bu davrda davlatning ta'lim sohasidagi ishtiroki cheklangan bo'lib, u faqat muayyan elita qatlamlari — aristokratiya va ruhoniylar farzandlariga mo'ljallangan maktablar faoliyatini qo'llab-quvvatlagan[5, 3–20-b]. Asosiy moliyaviy manbalar xususiy ehsonlar, cherkov daromadlari hamda mahalliy jamoalar yig'imi hisoblangan. Shu bois ta'lim tizimi jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning in'ikosi bo'lib, kambag'al va oddiy fuqarolar uchun o'qish imkoniyati deyarli mavjud emas edi.

Dastlabki bosqichning ijobiy jihati shundaki, u o'qitish jarayonini jamiyatning ijtimoiy hayotiga kiritdi, o'quv an'analari va maktab tizimining dastlabki ko'rinishlarini yaratdi. Shu bilan birga, bu davrda ta'limning institutsional asoslari shakllana boshladi va bilimning ijtimoiy ahamiyati tan olindi. Biroq, bu tizimning eng asosiy kamchiligi ta'limdagi adolatsizlik va tabaqalanish edi — savodxonlik faqat jamiyatning yuqori qatlamlari doirasida rivojlanib, keng xalq ommasi uchun ta'lim olish imkoniyati cheklanganligicha qolgan. Umuman olganda, bu bosqich ta'limni moliyalashtirish tizimining keyingi evolyutsiyasi uchun ijtimoiy va madaniy poydevor yaratdi, ammo moliyaviy jihatdan barqarorlik va tenglik prinsiplari hali shakllanmagan edi.

XVII asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davr ta'limni moliyalashtirish tarixida tub burilish bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Sanoat inqilobi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi, texnik taraqqiyot va urbanizatsiya jarayonlari yangi turdagi malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Davlatlar o'zining iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida inson kapitalini rivojlantirishga strategik resurs sifatida qaray boshladilar. Natijada ta'lim tizimining moliyalashtirish mexanizmlari tubdan o'zgardi — ilgari xususiy homiylik va diniy tashkilotlar mablag'lari hisobiga faoliyat yuritgan maktablar endilikda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlana boshlandi.

Bu davrda ta'lim tizimining davlat modeli shakllanib, majburiy boshlang'ich ta'lim g'oyasi keng yoyildi. Masalan, Germaniyada Otto fon Bismark siyosati doirasida xalq ta'limini markazlashtirish orqali sanoat uchun zarur malakali ishchilar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi. Buyuk Britaniya va Fransiyada ham “xalq maktablari” (public schools) tashkil etilib, o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha ilk davlat institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi[6, 71–112-b]. Ta'lim tizimining asosiy moliyaviy manbalari davlat budjeti, mahalliy soliq tushumlari hamda ayrim hollarda sanoat korxonalarini va xususiy fondlar hissasiga to'g'ri keldi.

Sanoatlashuv davrida ta'lim moliyalashtirish siyosati davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Natijada ta'lim sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi

ortdi, savodxonlik darajasi keskin oshdi va keng xalq ommasining ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, texnik va kasbiy bilimlarni rivojlantirishga e'tibor kuchayib, ta'lim tizimi sanoat ehtiyojlariga moslashtirildi. Bu jarayon iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Biroq, bu modelning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud edi. Ta'lim tizimi ko'proq sanoat ishlab chiqarish manfaatlariga xizmat qilganligi sababli, inson kapitalining ijtimoiy-madaniy va gumanitar yo'nalishlariga kamroq e'tibor berildi. Ta'limning markazlashuvi esa byurokratik to'siqlarni kuchaytirib, qishloq hududlaridagi ta'lim sifatining pastligiga sabab bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, ushbu davrda shakllangan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ta'lim tizimi keyingi bosqichlarda ijtimoiy davlat (velfer) modeli va zamonaviy inklyuziv ta'lim siyosatlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

XX asrning o'rtalaridan boshlab, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda, dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida "ijtimoiy davlat" yoki "welfare state" modeli yetakchi paradigma sifatida shakllandi. Bu bosqich asosan 1945–1980-yillar oralig'ini qamrab oladi va G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Germaniya, Buyuk Britaniya) hamda Shimoliy Amerika davlatlarida keng qo'llanilgan. Mazkur davrning asosiy xususiyati — ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot kabi sohalarda davlatning faol ishtirokini kuchaytirish va fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlarini kafolatlashga qaratilgan siyosatning shakllanishidir.

Ta'limni moliyalashtirishda ijtimoiy davlat modeli, avvalo, tenglik, adolat va umumiy farovonlik tamoyillariga asoslandi. Ta'lim endilikda nafaqat shaxsiy rivojlanish vositasi, balki davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy birdamligini ta'minlovchi strategik resurs sifatida qaraldi. Shu bois, ta'lim sohasini moliyalashtirish to'liq yoki qisman davlat budjeti hisobidan amalga oshirila boshlandi. Aksariyat mamlakatlarda bepul umumiy o'rta ta'lim joriy etildi, ayrim hollarda esa oliy ta'lim ham davlat tomonidan moliyalashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari sifatida asosan davlat budjeti va soliqlar asosiy o'rinni egalladi. Xususan, 1950–1980-yillar oralig'ida Skandinaviya mamlakatlarida YAIMning 6–8 foizi, Germaniyada 4,8 foizi, Buyuk Britaniyada esa 5 foizi ta'lim sohasiga yo'naltirildi. Ta'lim tizimi ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi sifatida ko'rib, davlatning soliqqa asoslangan qayta taqsimlash siyosati orqali barcha fuqarolar uchun ta'lim imkoniyatlarini tenglashtirishga erishildi.

Ijobiy jihatdan, bu davr ta'lim qamrovi va sifati bo'yicha misli ko'rilmagan yuksalishni ta'minladi. Fuqarolarning savodxonlik darajasi oshdi, o'qituvchilarning

mehnat sharoitlari yaxshilandi, oliy ta'lim tizimi kengaydi va ilm-fan taraqqiyoti tezlashdi. Bundan tashqari, gender tengligi va ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish bo'yicha muhim natijalarga erishildi. Masalan, Shvetsiya va Norvegiyada 1970-yillarga kelib, ayollar orasida oliy ta'limda ishtirok darajasi 50 foizdan oshgan[7, 278–310-b].

Biroq, bu modelning ayrim salbiy jihatlari ham kuzatildi. Davlatning haddan tashqari yuqori moliyaviy majburiyatlari budjet taqchilligi va soliq yukining ortishiga olib keldi. Ba'zi hollarda ta'lim sohasida resurslardan foydalanish samaradorligi pasaydi, byurokratik boshqaruv kuchaydi, innovatsion yondashuvlar sustlashdi. Aynan shu omillar 1980-yillar oxirida yangi iqtisodiy paradigmaning — bozor mexanizmlariga asoslangan ta'limni moliyalashtirish tizimining shakllanishiga turtki bo'ldi.

XX asrning 1980-yillaridan boshlab dunyo iqtisodiyoti keskin o'zgarish bosqichiga kirdi. Neoliberal siyosat g'oyalari – davlat aralashuvini cheklash, bozor mexanizmlarini kengaytirish, xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirish va raqobatni kuchaytirish – nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalarga, xususan, ta'lim tizimiga ham chuqur kirib bordi. Ushbu bosqich asosan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlarda 1980-yillardan boshlangan bo'lib, keyinchalik Sharqiy Yevropa va Osiyoning ayrim rivojlanayotgan davlatlariga ham tarqaldi. Mazkur davrda ta'limni moliyalashtirish tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi — davlatning bevosita moliyaviy ishtiroki kamaydi, o'rniga xususiy tashabbus va bozor tamoyillari asosiy drayverga aylandi.

Bu jarayonning shakllanishida Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro institutlarning siyosiy-iqtisodiy bosimi va tavsiyalari muhim rol o'ynadi. Ularning ta'lim siyosati borasidagi yondashuvi “effektivlik”, “raqobatbardoshlik”, “xizmatlar bozorining liberallashtirilishi” tamoyillariga asoslangan bo'lib, natijada ta'lim endilikda ijtimoiy majburiyat emas, balki inson kapitaliga investitsiya kiritish jarayoni sifatida ko'riladigan bo'ldi. Mazkur bosqichning asosiy xususiyati — ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasida muvozanatni shakllantirish, ta'lim xizmatlarini bozor mexanizmlari asosida tashkil etish va raqobat muhitini kuchaytirishdir. Oliy ta'lim muassasalarida kontrakt asosidagi o'qish tizimi, grantlar, talabalar kreditlari, homiylik va davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari keng joriy etildi. Buning natijasida, ta'lim muassasalari o'z faoliyatini moliyaviy jihatdan mustaqil yurita boshladi, innovatsion boshqaruv tamoyillari paydo bo'ldi.

Bu bosqichda moliyalashtirish manbalari sifatida davlat budjeti (cheklangan hajmda), o‘quv to‘lovlari (kontrakt), homiylik va xayriya mablag‘lari, xususiy fondlar, xalqaro tashkilotlarning grantlari hamda ta‘lim kreditlari xizmat qildi. Bu manbalar ta‘lim tizimini moliyaviy jihatdan barqarorlashtirishda muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, ijtimoiy tenglik tamoyiliga ma‘lum darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Bozor tamoyillarining joriy etilishi bir qator ijobiy natijalarni berdi. Avvalo, ta‘lim tizimida resurslardan foydalanish samaradorligi oshdi, xususiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, raqobat kuchaydi va innovatsion boshqaruv mexanizmlari kengaydi. Oliy ta‘lim sohasida moliyaviy mustaqillik kuchayib, ta‘lim muassasalari yangi mablag‘ manbalarini izlashga o‘rgandi. Bu holat ilmiy-tadqiqot faoliyatini ham rag‘batlantirdi.

Biroq ushbu jarayonning salbiy oqibatlari ham mavjud edi. Eng avvalo, ta‘limdagi ijtimoiy tenglik pasaydi, past daromadli aholi qatlamlarining oliy ta‘limga kirish imkoniyatlari cheklana boshladi. Ta‘lim sifati bilan moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida nomuvofiqlik paydo bo‘ldi — ayrim hollarda tijorat manfaatlari ta‘limning ijtimoiy vazifasidan ustun keldi. Xususiy oliy ta‘lim muassasalari sonining oshishi ta‘lim sifati ustidan nazoratni murakkablashtirdi, davlatning tartibga soluvchi roli esa zaiflashdi. Jahon bankining 2000-yildagi hisobotiga ko‘ra, 1990-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda ta‘lim xarajatlarining 30–40 foizi aholining o‘z hisobidan qoplanar edi[8]. Masalan, AQSHda 1980–1995-yillar oralig‘ida oliy ta‘lim uchun kontrakt to‘lovi o‘rtacha 150 foizga oshgan, bu esa ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirgan. Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar esa bozor tamoyillarini davlat-xususiy sheriklik mexanizmi bilan uyg‘unlashtirib, ta‘lim sifatini oshirishga erishgan, natijada innovatsion iqtisodiyot uchun zarur inson kapitali shakllangan.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu bosqichda ta‘lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylandi. Ta‘limni moliyalashtirish siyosatida “samaradorlik va tenglik” (efficiency vs. equity) o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Iqtisodchi olimlar G. Beckerning “inson kapitali nazariyasi”, P. Samuelson va J. Stiglitzning davlat aralashuvi zarurati haqidagi qarashlari ta‘lim siyosatini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

XXI asr boshlariga kelib, global ta‘lim tizimida tub paradigmatic o‘zgarishlar yuz berdi. Bozor tamoyillarining haddan tashqari ustuvorligi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi hamda inson kapitalining sifat jihatidan nomutanosib rivojlanishi natijasida, ko‘plab davlatlar ta‘limni moliyalashtirish siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa 2000-yillardan boshlab “barqaror”, “inklyuziv” va “adolatli” ta‘limni moliyalashtirish modeli global miqyosda shakllana boshladi. Bu bosqichning

markazida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), UNESCO, Jahon banki va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan “sustainable education financing” — barqaror ta’lim moliyalashtirish konsepsiyasi turadi.

Mazkur davrning asosiy xususiyati — ta’limni nafaqat iqtisodiy o‘rish omili, balki ijtimoiy barqarorlik, gender tengligi va inklyuziv jamiyat qurilishining poydevori sifatida ko‘rishdir. 2015-yilda qabul qilingan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-4) “Har bir inson uchun sifatli, inklyuziv va adolatli ta’limni ta’minlash” vazifasini belgilab berdi. Shu nuqtai nazardan, ta’limni moliyalashtirish siyosati davlat budjeti, xalqaro grantlar, xususiy sektor ishtiroki hamda donorlik mexanizmlarining muvozanatli uyg‘unligiga asoslanmoqda.

Zamonaviy bosqichda ta’lim tizimini moliyalashtirishning yetakchi tamoyillari sifatida barqarorlik, samaradorlik, inklyuzivlik va hisobdorlik tushunchalari shakllandi. Davlatlarning fiskal siyosatida ta’lim xarajatlari YAIMning 4–6 foizini tashkil etishi global standart sifatida qabul qilingan. OECD (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, Norvegiya, Finlyandiya, Kanada va Janubiy Koreya singari mamlakatlar ta’limga YAIMning 6 foizdan ortig‘ini yo‘naltiradi, bu esa ularning inson kapitali sifatini oshirib, raqobatbardoshlikni ta’minlab kelmoqda. Moliyalashtirish manbalari nuqtayi nazaridan, ushbu bosqichda davlat budjeti asosiy manba bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, xalqaro moliyaviy institutlarning grantlari, donorlik fondlari (masalan, Global Partnership for Education, UNICEF Education Fund), davlat-xususiy sheriklik dasturlari va raqamli ta’lim platformalari orqali jalb etilayotgan sarmoyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu esa ta’lim tizimini moliyaviy diversifikatsiyalash va tashqi manbalarga bo‘lgan bog‘liqlikni kamaytirish imkonini bermoqda.

Zamonaviy davrning eng muhim yutug‘i — inklyuziv ta’lim konsepsiyasining keng qo‘llanilishi bo‘ldi. Avvalgi bosqichlarda iqtisodiy samaradorlik markazda turgan bo‘lsa, hozirda ta’limning ijtimoiy adolat va imkoniyat tengligi jihati ustuvorlik kasb etmoqda. Natijada, ta’lim siyosati nogironligi bo‘lgan shaxslar, qizlar, qishloq aholisi va past daromadli qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilmoqda. UNESCO (2023) hisobotida qayd etilishicha, global miqyosda 2010–2022-yillar oralig‘ida qizlarning boshlang‘ich ta’limdagi qamrovi 77 foizdan 89 foizga, past daromadli mamlakatlarda esa 56 foizdan 73 foizga oshgan[9, 37–64-b].

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ta’lim moliyalashtirish mexanizmlariga ham yangicha yondashuvlarni olib kirdi. EdTech (Education Technology) loyihalari, onlayn ta’lim platformalari, ochiq kurslar (MOOC), masofaviy o‘qitish tizimlariga investitsiyalar sezilarli o‘rdi. Masalan, 2021-yilda dunyo bo‘yicha ta’lim texnologiyalariga yo‘naltirilgan xususiy sarmoyalar hajmi 20 milliard AQSH

dollaridan oshdi. Bu tendensiya, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida keskin kuchaydi va ta'limni moliyalashtirishda yangi raqamli modelni shakllantirdi.

Mazkur bosqichning ijobiy jihatlari shundan iboratki, ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanmoqda, resurslardan foydalanish samaradorligi oshmoqda va teng imkoniyatlarga ega, inklyuziv ta'lim modeli shakllanmoqda. Davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik mustahkamlanib, ta'limni strategik investitsiya sifatida baholash tamoyili keng qabul qilinmoqda. Biroq salbiy jihatlari ham mavjud. Xalqaro grant va donorlik mablag'lariga haddan tashqari tayanish ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy mustaqillikni cheklamoqda. Raqamli tafovut (digital divide) muammosi — ya'ni, texnologiyalarga kirish imkoniyatining notekis taqsimlanishi — ijtimoiy tengsizlikni yangi shaklda qayta tiklash xavfini tug'dirmoqda. Bundan tashqari, global ta'lim siyosatining ba'zi standartlari milliy sharoit va madaniy qadriyatlarga mos kelmay, “bir qolipdagi” yondashuvlar muammosini yuzaga keltirmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'limni moliyalashtirish tizimlari insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq holda shakllangan. Dastlabki (davlat himoyasiga asoslangan) davrlarda ta'lim asosan xayriya va diniy tashkilotlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan bo'lsa, sanoatlashuv jarayoni ta'limni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi. XX asr o'rtalarida ijtimoiy davlat modeli ta'limni umumiy farovonlik siyosatining markaziga olib chiqdi, keyingi bozor islohotlari davrida esa xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning ishtiroki kuchaydi. XXI asrda esa barqaror va inklyuziv moliyalashtirish konsepsiyasi global tendensiya sifatida shakllanib, ta'lim tizimini iqtisodiy samaradorlikdan tashqari ijtimoiy adolat, teng imkoniyat va inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida baholashga asos bo'ldi.

Tadqiqot natijalarimiga ko'ra har bir bosqichda ta'limni moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi darajasi oshib borgan: xayriya va cherkov mablag'laridan boshlab, davlat budjeti, xususiy sarmoyalar, xalqaro grantlar va innovatsion moliyaviy vositalargacha. Tizimning rivojlanishida muayyan nomutanosibliklar, ya'ni tabaqaviy tafovut, tengsizlik va resurslardan samarasiz foydalanish kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Bugungi kunda ta'limni moliyalashtirish siyosatining dolzarbligi shundaki, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va inson resurslarining intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilishi lozim. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasida strategik hamkorlik zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimini barqaror moliyalashtirish, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, ta'lim sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasida barqaror hamkorlikni chuqurlashtirish zarur. Bu orqali ta'lim muassasalariga investitsiyalar hajmini oshirish, o'quv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, davlat budjeti hisobidan ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish, ularni natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari orqali taqsimlash tizimini kuchaytirish muhimdir.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida "grantlar, stipendiyalar, maqsadli jamg'armalar" kabi moliyaviy instrumentlardan foydalanish tizimini kengaytirish, xususan, kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillarining ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiruvchi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'limni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli, korporativ homiylik va ijtimoiy investitsiya fondlari orqali qo'shimcha resurslarni jalb qilish ta'lim sifatini sezilarli oshiradi. Shu bois O'zbekiston sharoitida ham ushbu mexanizmlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish ta'lim tizimining moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilgan natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimi (Performance-based funding) ta'lim sifatini oshirishda samarali bo'lgan. Mazkur tizimda byudjet mablag'lari o'quv yurtlarining natijalariga — bitiruvchilarning bandligi, ilmiy faoliyati va akkreditatsiya ko'rsatkichlariga qarab taqsimlanadi. O'zbekiston sharoitida bu modelni bosqichma-bosqich joriy etish oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi, mablag'lardan oqilona foydalanish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Germaniya, Janubiy Koreya va Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership, PPP) asosidagi ta'lim moliyalashtirish modeli ta'lim infratuzilmasini tez va barqaror rivojlantirishga imkon beradi. O'zbekiston uchun bu yondashuvni maktabgacha va texnik kasb-hunar ta'limida joriy etish, xususiy sektorni o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlariga jalb etish orqali budjet yukini kamaytirish hamda ta'limning innovatsion rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. 5th ed. New York: McGraw-Hill.

2. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2015). *The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth*. Cambridge, MA: The MIT Press.
3. Do'stmuhammad H. Xalq ta'limini moliyalashtirish. Mogorafiya.- T.IQTISODIYOT, 2016
4. Jo'rayev, N. (2021). *O'zbekiston ta'lim tizimida moliyaviy siyosatni modernizatsiya qilishning nazariy asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Bowen, H. R. (1980). *Investment in Learning: The Individual and Social Value of American Higher Education*. San Francisco: Jossey-Bass.
6. Lindert, P. H. (2004). *Growing Public: Social Spending and Economic Growth since the Eighteenth Century*. Cambridge University Press.
7. OECD (1998). *Education at a Glance: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing
8. World Bank (2000). *Higher Education in Developing Countries: Peril and Promise*. Washington, DC.
9. UNESCO (2023). *Global Education Monitoring Report: Technology in Education – A Tool on Whose Terms?* Paris.